Nurmanov Karjavbay Tilevbaevich, Nurmanov Din-Axmed Tilevbaevich	
MINTAQA SANOAT KORXONALARIDA IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1011
Axmedova Xumora Ibroxim qizi	
ELEKTR MARKAZLASHTIRISH TIZIMIDAGI BOSHQARISH VA NAZORAT RELELI BLOKINI (P62) ZAMONAVIY, KONTAKTSIZ ELEMENTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH HAMDA UNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQUISH	1015
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
KLASTERLAR FAOLIYATIDA DAVLAT QO'LLAB-QUVVATLASHI VA INVESTORLAR ROLI	1026
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
ИССЛЕДОВАНИЯ И РАЗРАБОТКИ ШЛАКООБРАЗУЮЩЕЙ ОСНОВЫ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ НА БАЗЕ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫХ РЕСУРСОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	1030
Садыков Жахонгир Насырджанович	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA QURILISH SANOATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGI	1039
Boltayev Umidjon Talant o'g'li	
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФРАКРАСНЫХ ДАТЧИКОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В КОНТРОЛЕ КАЧЕСТВА ЗЕРНОВЫХ ПРОДУКТОВ	1044
Мухамедханов Улугбек Тургудович	
MINTAQA IQTISODIYOTINING IQTISODIY RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1049
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA SUN'IY INTELLEKT VA BIG DATA ASOSIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISH	1054
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ПРОЦЕССАМИ РАЗДЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ БАЗ ЗНАНИЙ И ЦИФРОВЫХ МОДЕЛЕЙ	1059
Абдуллева Камола Рустамовна	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	1065
A.Xakimov, X.Xakimov	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ АВТОМОБИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	1073
Касымова Нозима Омиловна	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIY TAJRIBASI	1077
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1082
Saidova Sevara Abdimumin qizi	
TIBBIYOT XODIMLARI MEHNAT FAOLLIGINI RAG'BATLANTIRISHNING IQTISODIY JIHATLARI.....	1089
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
RAQAMLASHTIRISH — ILM-FAN INTEGRATSIYASI, INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR VA SANOAT RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI.....	1094
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
FUQAROLIK JURNALISTIKASIDA GENDER MUVOZANATI: ILMIY YONDASHUVLAR TADRIJI	1101
Zakirova Oisha Vohid qizi	
AGLOMERATSIYA BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAQATLAR TAJRIBASI VA UNDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI	1109
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA LOGISTIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH VA TA'MINOT ZANJIRLARINI BOSHQARISH.....	1114
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH BO'YICHA DAVLAT DASTURLARI BAJARILISHIDA DAVLAT–XUSUSIY SHERIKCHILIKDAN FOYDALANISH	1122
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ СЕТЕВОГО ТРАФИКА НА КАЧЕСТВО ОБСЛУЖИВАНИЯ В СОВРЕМЕННЫХ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ СЕТЯХ: ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ	1127
Усманова Наргиза Бахтиёрбековна, Саиткамолова Гузаль Камильжон кизи	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ORGANIK MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1141
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
MAHALLIY BUDJET IJROSINI TA'MINLASHDA G'AZNACHILIK TIZIMINING INSTITUTSIONAL ROLI VA SAMARADORLIGI	1145
Tangriyeva Farida Abdulkarimovna	
O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MEXANIKA MUHANDISLIGI TERMINLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	1150
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
BUDJET SIYOSATI VA DAVLAT MOLIYASI BARQARORLIGI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	1154
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
RESTORAN XIZMATLARI SOHASIDA REJALASHTIRILGAN ISTE'MOL XULQ-ATVORI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	1159
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
MASHINASOZLIK KORHONALARIDA RAQAMLI EGIZAKLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	1163
Yusupov Azamat Alijonovich	
SUN'IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARNING PERSONALNI BOSHQARISHDAGI O'RNI VA SAMARADORLIGI	1168
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
MOLIYAVIY HISOBOTDA FIRIBGARLIK VA XATOLARNI ANIQLASH MASALALARI	1173
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR FAOLIYATI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNING OSIYO MAMLAKATLARI TAJRIBALARI.....	1178
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	



XALQARO TAJRIBA ASOSIDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1183
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI ORQALI KREDIT RISKLARNI BOSHQARISH.....	1187
Anvarov Asliddin Nabijon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIVAVIY NAZORATNING AHAMIYATI	1191
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK– DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH	1195
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ АО «УЗБЕКНЕФТЕГАЗ» ПО ВНЕДРЕНИЮ МСФО 15 НА КОНТРАКТЫ С ПОКУПАТЕЛЯМИ	1201
Тошпулатова Мунисабону Иброхим кизи	
BUXORO VILOYATI AGROSANOAT SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNING JORIY ETISH HOLATI, HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	1209
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINI SUG'URTA XIZMATLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	1216
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
BANK SEKTORI RIVOJLANISHIDA MARKETING INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	1223
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
TURIZM BOSHQARUVIDA RAQAMLI TIZIMLARI VA ULARNING AMALIYOTDA TADBIQ ETISHDA XORIJ TAJRIBASI	1228
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MILLIY VALYUTADA JALB QILINGAN DEPOZITLARNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1232
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
NAVOIY VILOYATI AGRAR STRUKTURASINING IQTISODIY TAVSIFI	1237
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP IN THE EDUCATION SECTOR.....	1241
Alieva Elnara Ametovna	
FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISHNING NAZARIY-MEZONLARI.....	1250
Shoximardanova Niginabonu Shavkatovna	
ГРАФОАНАЛИТИЧЕСКИЙ РАСЧЁТ И ГЕОМЕТРИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ СИНХРОНИЗАТОРА В БИЦИКЛОВОМ ПЛАНЕТАРНОМ МЕХАНИЗМЕ С РЕВЕРСИРУЮЩИМИСЯ САТЕЛЛИТАМИ.....	1253
Алимов Бахтияр Милибаевич, Абдукайимов Ботиржон Ниязкулович	
HUDUDLARNING INVESTITSION SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI	1258
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	1264
Xujamuratov Abbos Mardonovich	



ISLOM BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISH METODOLOGIYASI: XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1270
Voxidov Oybek Roziqovich	
SUG'URTA BOZORIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1275
Fayziyev Oybek Raximovich	
DETERMINANTS OF WAGES IN THE MODERN LABOUR MARKET: A LITERATURE REVIEW.....	1279
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
ЦИФРОВЫЕ ПРОЕКТЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ОТРАСЛИ.....	1288
Каракулов Фарход Зайпудинович	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	1294
Achilov Ilmurad Nematovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING AKADEMIK XAVFLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA MEXANIZMLARINI JORIY ETISH.....	1299
G'aniyev G'olibjon Abdiraxmanovich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA MERCHANDAYZING STANDARTLARINI QO'LLASH MEXANIZMINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI.....	1305
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING INNOVATSION TAHLILI	1314
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
FRANSUZ TILIDA FONO-GRAFOSTILISTIK VOSITALAR: TIPOLOGIYA VA KLASSIFIKATSIYA	1319
Islomov Dilshod Shomurodovich	
PRACTICAL ASPECTS OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN MAHALLAS	1324
Gafurov Ubaydullo Vakhobovich	
GUDVILL VA XARIDDAN KELGAN FOYDANI MHXS ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING ILMIY-AMALIY MASALALARI.....	1329
Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug'li	
BANKLARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGI	1336
Xabibulloxoji Muhammadsolih Alisher o'g'li	
MARKETING AS A DECISIVE ELEMENT IN THE SUCCESSFUL INTRODUCTION OF INNOVATIVE PRODUCTS TO THE MARKET.....	1343
Davlyatova Gulnara	
KORXONALARDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	1348
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	



KORXONALARDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH

Akramov Toxir Abdiraxmanovich

TDIU "Marketing" kafedrası professori, DSc

ORCID: 0009-0003-4536-502X

E-mail: t.akramov@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarda raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan samarali foydalanish orqali raqobatbardoshlikni oshirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda iste'molchilar xulq-atvoridagi tizimli o'zgarishlar sharoitida marketing kommunikatsiyalarining strategik ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot jarayonida raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalarining asosiy yo'nalishlari aniqlanib, ularning korxona raqobatbardoshligiga ta'siri kompleks baholanadi. Olingan natijalar raqamli kommunikatsiya vositalaridan maqsadli va integratsiyalashgan holda foydalanish korxonalarining bozor mavqeini mustahkamlash hamda uzoq muddatli raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqamli marketing, marketing kommunikatsiyalari, kommunikatsiya strategiyasi, raqobatbardoshlik, omnichannel, iste'molchi xulq-atvori, raqamli platformalar.

Abstract. This article provides a scientific analysis of enhancing enterprise competitiveness through the application of digital marketing communication strategies. The strategic importance of marketing communications is substantiated in the context of rapid digital technology development and sustained changes in consumer behavior. The study identifies the key directions of digital marketing communication strategies and evaluates their impact on enterprise competitiveness. The findings demonstrate that effective and integrated use of digital communication tools contributes to strengthening enterprises' market positions and building long-term competitive advantages.

Keywords: digital marketing, marketing communications, communication strategy, competitiveness, omnichannel approach, consumer behavior, digital platforms.

Аннотация. В данной статье научно анализируются вопросы повышения конкурентоспособности предприятий на основе использования стратегий цифровых маркетинговых коммуникаций. Стратегическая значимость маркетинговых коммуникаций обосновывается в условиях активного развития цифровых технологий и устойчивых изменений в поведении потребителей. В ходе исследования определены ключевые направления стратегий цифровых маркетинговых коммуникаций, а также оценено их влияние на конкурентоспособность предприятия. Полученные результаты свидетельствуют о том, что эффективное и системное использование цифровых коммуникационных инструментов способствует укреплению рыночных позиций предприятий и формированию долгосрочных конкурентных преимуществ.

Ключевые слова: цифровой маркетинг, маркетинговые коммуникации, коммуникационная стратегия, конкурентоспособность, омниканальный подход, поведение потребителей, цифровые платформы.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida raqobat muhitining kuchayishi, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi hamda iste'molchi xulq-atvoridagi tizimli o'zgarishlar korxonalarining marketing faoliyatini yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, raqamli muhitda axborot oqimlarining ko'payishi va kommunikatsiya kanallarining diversifikatsiyalanishi sharoitida marketing kommunikatsiyalarini strategik asosda rejalashtirish korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda [1]. An'anaviy marketing yondashuvlarining bozor talablari bilan uyg'unlashuvi cheklangan



bir sharoitda, raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan samarali va integratsiyalashgan holda foydalanish korxonalar uchun barqaror raqobat ustunligini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda [2].

Raqamli marketing kommunikatsiyalari internet tarmoqlari, ijtimoiy platformalar, mobil ilovalar, raqamli ekotizimlar hamda ma'lumotlarga asoslangan texnologiyalar orqali iste'molchilar bilan o'zaro aloqani tashkil etishga yo'naltirilgan bo'lib, ular korxonalarga auditoriya bilan tezkor, shaxsiylashtirilgan va o'lchab bo'ladigan muloqotni yo'lga qo'yish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, raqamli kommunikatsiya vositalaridan kompleks va tizimli foydalanish brendning tan olinuvchanligini oshirish, iste'molchi sodiqligini mustahkamlash hamda bozor ulushini kengaytirish orqali korxonalarning raqobatbardoshligini izchil ravishda kuchaytiradi [3].

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi¹ iqtisodiyot tarmoqlarida, shu jumladan marketing va savdo faoliyatida raqamli texnologiyalardan keng va samarali foydalanishni nazarda tutadi [4]. Shuningdek, "Elektron tijorat to'g'risida" gi Qonun hamda "Axborotlashtirish to'g'risida" gi Qonun korxonalarda raqamli marketing kommunikatsiya vositalaridan foydalanishning huquqiy-me'yoriy asoslarini belgilab beradi [5], [6].

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar doirasida korxonalarning raqamli platformalar orqali mahsulot va xizmatlarni ilgari surish, iste'molchilar bilan elektron muloqotni rivojlantirish hamda marketing jarayonlarini raqamlashtirish imkoniyatlari izchil kengayib bormoqda. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim korxonalarda raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanish yanada tizimli va strategik yondashuvlar bilan boyitilishi mumkin. Bu esa raqamli marketingning raqobatbardoshlikni oshirishdagi mavjud salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini anglatadi [7].

Mazkur maqolaning maqsadi korxonalarda raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur tahlil qilish, ularning raqobatbardoshlikka ta'sirini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari korxonalarda marketing faoliyatini takomillashtirish, raqamli kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror raqobat ustunligini ta'minlashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqish va ularni korxona raqobatbardoshligi bilan uzviy bog'lash masalalari marketing nazariyasida uzoq yillardan buyon izchil tadqiq etib kelinmoqda. Klassik yondashuvlarda marketing kommunikatsiyalari asosan reklama, savdoni rag'batlantirish hamda jamoatchilik bilan aloqalar vositalari orqali iste'molchiga axborot yetkazish jarayoni sifatida talqin etilgan. Jumladan, Kotler va Keller marketing kommunikatsiyalarini brend qiymatini shakllantirish hamda iste'molchi bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yishning muhim instrumenti sifatida izohlaydi [1]. Ushbu yondashuvda kommunikatsiya jarayoni, asosan, bir yo'nalishli axborot uzatishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanadi.

Keyingi ilmiy tadqiqotlarda marketing kommunikatsiyalarining integratsiyalashgan modeli shakllandi. Xususan, Schultz va Kitchen integratsiyalashgan marketing kommunikatsiyalari (IMC) konsepsiyasini ishlab chiqib, turli kommunikatsiya kanallaridan yagona strategik maqsad asosida foydalanish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi [3]. Mualliflarning ta'kidlashicha, kommunikatsiya strategiyalarining o'zaro uyg'unligi korxonalarga bozorda barqaror imijni shakllantirish va raqobat ustunligini mustahkamlash imkonini yaratadi.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi marketing kommunikatsiyalarini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Chaffey va Ellis-Chadwick raqamli marketing kommunikatsiyalarini iste'molchi bilan interaktiv hamda real vaqt rejimida muloqotni ta'minlovchi strategik vosita sifatida baholaydi [2]. Mualliflar raqamli kanallar orqali amalga oshiriladigan marketing faoliyati kommunikatsiya samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, marketing xarajatlarini optimallashtirish imkoniyatlarini ham kengaytirishini ta'kidlaydi.

So'nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda omnichannel yondashuv marketing kommunikatsiya strategiyalarining muhim tarkibiy qismi sifatida keng e'tirof etilmoqda. Verhoef va hammualliflar omnichannel strategiyani iste'molchi tajribasini yaxshilashga yo'naltirilgan kompleks kommunikatsiya modeli sifatida tavsiflaydi [8]. Ushbu yondashuvga ko'ra, iste'molchi bilan barcha aloqa nuqtalarida izchil va uzluksiz kommunikatsiyani ta'minlash korxonalarning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumotlarga asoslangan marketing (data-driven marketing) zamonaviy marketing kommunikatsiya strategiyalarining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda. Wedel va Kannan marketing qarorlarini qabul qilish jarayonida katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish marketing xabarlarining aniqligi va samaradorligini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son <https://lex.uz/docs/-5030957>

sezilarli darajada oshirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi [9]. Ushbu yondashuv shaxsiylashtirilgan marketing kommunikatsiyalarini ishlab chiqish orqali iste'molchi sodiqligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Korxona raqobatbardoshligi nuqtayi nazaridan marketing kommunikatsiyalarining o'zni Porterning raqobat ustunligi nazariyasi bilan ham izohlanadi. Porter ta'kidlaganidek, differensiallashuv strategiyasi doirasida samarali kommunikatsiya vositalaridan foydalanish korxonalarga bozorda ajralib turish va qo'shimcha qiymat yaratish imkonini beradi [10]. Raqamli marketing kommunikatsiyalari aynan ushbu differensiallashuvni ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham raqamli marketing va marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekistonlik tadqiqotchilar raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning marketing faoliyatini transformatsiya qilish zarurligini asoslab, raqamli kommunikatsiya vositalaridan foydalanish raqobatbardoshlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadilar [11]. Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalarini kompleks va tizimli tarzda raqobatbardoshlik bilan uzviy bog'lab o'rganish masalasi yanada chuqurlashtirilishi mumkin, bu esa mazkur yo'nalishda yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot korxonalarda raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanishning raqobatbardoshlikka ta'sirini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, unda kompleks ilmiy-metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida umumilmiy hamda maxsus ilmiy usullardan o'zaro uyg'unlikda foydalanildi, bu esa o'rganilayotgan muammoni nazariy va amaliy jihatdan chuqur va tizimli tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini marketing kommunikatsiyalari, integratsiyalashgan marketing kommunikatsiyalari, raqamli marketing hamda raqobatbardoshlik nazariyalariga oid xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tashkil etadi. Ushbu bosqichda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Natijada raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalarining mohiyati, asosiy turlari hamda ularning korxona raqobatbardoshligiga ta'sir etish mexanizmlari aniqlab olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy bozor sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligi tobora ko'proq raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan foydalanish darajasi bilan belgilanmoqda. Tadqiqot doirasida raqamli marketing kommunikatsiya vositalarining asosiy yo'nalishlari hamda ularning korxona raqobatbardoshligiga ta'siri tizimli va kompleks tarzda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli kommunikatsiyalar an'anaviy marketing vositalariga nisbatan tezkorlik, o'lchovlilik va shaxsiylashtirish imkoniyatlari bilan ajralib turadi, bu esa marketing faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalarining asosiy yo'nalishlari aniqlanib, ularning korxona raqobatbardoshligiga ta'siri umumlashtirilgan holda baholandi (1-jadval).

1-jadval. Raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalarining korxona raqobatbardoshligiga ta'siri²

Raqamli marketing kommunikatsiya strategiyasi	Asosiy tavsifi	Raqobatbardoshlikka ta'siri
Ijtimoiy tarmoqlar marketingi	Ijtimoiy platformalar orqali auditoriya bilan interaktiv muloqotni yo'lga qo'yish	Brend tan olinuvchanligini oshiradi va iste'molchi sodiqligini mustahkamlaydi
Kontent marketingi	Foydali, dolzarb va maqsadli kontent orqali iste'molchiga ta'sir ko'rsatish	Brendga bo'lgan ishonchni oshiradi va uzoq muddatli munosabatlarni shakllantiradi
Qidiruv tizimlari marketingi (SEO/SEM)	Qidiruv tizimlarida mahsulot va xizmatlarning ko'rinuvchanligini oshirish	Bozor qamrovini kengaytiradi hamda savdo hajmining o'sishiga xizmat qiladi
Elektron pochta marketingi	Shaxsiylashtirilgan xabarlar orqali mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatish	Mijozlarni saqlab qolishni kuchaytiradi va takroriy xaridlarni rag'batlantiradi
Omnichannel kommunikatsiya	Bir nechta raqamli kommunikatsiya kanallarini integratsiyalashgan holda boshqarish	Iste'molchi tajribasini yaxshilaydi va barqaror raqobat ustunligini ta'minlaydi



1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, eng yuqori samaradorlik omnichannel yondashuv hamda kontent marketing strategiyalari orqali ta'minlanadi. Mazkur strategiyalar iste'molchi bilan uzluksiz va izchil muloqotni yo'lga qo'yish hamda brend qiymatini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar marketingi va qidiruv tizimlari orqali amalga oshiriladigan kommunikatsiyalar korxonalarning bozor qamrovini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan kompleks va integratsiyalashgan holda foydalanayotgan korxonalarda raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari, xususan bozor ulushi, mijozlar bazasi hamda brend tan olinuvchanligi sezilarli darajada yuqori bo'lishi aniqlangan. Ushbu holat raqamli marketing vositalarini fragmentar tarzda emas, balki yagona va izchil strategik tizim sifatida qo'llash zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalari va korxona raqobatbardoshligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiruvchi ilmiy-konseptual model keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalarining korxona raqobatbardoshligiga ta'sirini aks ettiruvchi konseptual model³

1-rasmda ko'rsatilganidek, raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalarining markazida iste'molchi joylashgan bo'lib, raqamli platformalar, ma'lumotlarni tahlil qilish hamda kommunikatsiya kanallarining integratsiyalashuvi orqali korxonaning raqobatbardoshligi shakllanadi. Strategik rejalashtirish va monitoring mexanizmlari mazkur jarayonning uzluksizligini ta'minlaydi, shuningdek, marketing qarorlarining samaradorligini izchil oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan samarali va tizimli foydalanish korxonalarga bozor sharoitlariga tezkor moslashish, iste'molchi ehtiyojlarini aniq va to'liq qondirish hamda barqaror raqobat ustunligini shakllantirish imkonini beradi. Mazkur natijalar keyingi bosqichda muhokama va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning raqobatbardoshligi tobora ko'proq marketing kommunikatsiya strategiyalarining raqamlashtirilganligi, integratsiyalashganligi hamda iste'molchi markazli yondashuvga asoslanganligi bilan belgilanmoqda. Bozor muhitining jadal o'zgarishi sharoitida an'anaviy marketing kommunikatsiyalari imkoniyatlarini kengaytirish zarurati ortib borayotgan bir paytda, raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan tizimli va izchil foydalanish korxonalar uchun barqaror raqobat ustunligini shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalarini rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Dastlab marketing kommunikatsiyalarining taktik muvofiqlashtirilishi orqali xabarlar

3 Muallif ishlanmasi.



izchilligi va yagona kommunikatsion pozitsiya ta'minlanadi. Keyingi bosqichda esa ularning qamrovi kengaytirilib, iste'molchi bilan barcha aloqa nuqtalarini qamrab oluvchi integratsiyalashgan kommunikatsiya tizimi shakllantiriladi. Axborot texnologiyalarini qo'llash marketing kommunikatsiyalarining shaxsiylashtirilishi va o'lchanishini ta'minlasa, moliyaviy va strategik integratsiya mazkur jarayonlarning uzoq muddatli samaradorligini kafolatlaydi.

Korxonalarda raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalarini ishlab chiqishda omnichannel yondashuvni ustuvor yo'nalish sifatida belgilash hamda barcha raqamli va an'anaviy kommunikatsiya kanallarini yagona strategik tizimga birlashtirish zarur. Shuningdek, marketing faoliyatida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ya'ni iste'molchi ma'lumotlarini yig'ish, tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Marketing kommunikatsiyalarida shaxsiylashtirilgan kontent va individual takliflardan foydalanishni kuchaytirish orqali iste'molchi sodiqligini oshirish hamda brend bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, marketing kommunikatsiya strategiyalarining samaradorligini baholash uchun aniq indikatorlar tizimini joriy etish va doimiy monitoring mexanizmlarini yo'lga qo'yish korxonalarning raqamli marketing faoliyatini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli marketing kommunikatsiya strategiyalaridan kompleks va izchil foydalanish korxonalarning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshiradi, ularning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur tadqiqot natijalari marketing kommunikatsiya strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishda muhim metodologik va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kotler, P., Keller, K. Marketing Management. — Pearson Education, 2016.
2. Chaffey, D., Ellis-Chadwick, F. Digital Marketing. — Pearson Education, 2019.
3. Schultz, D.E., Kitchen, P.J. Integrated Marketing Communications. — McGraw-Hill, 2000.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. — <https://lex.uz/docs/-5030957>
5. O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-6213382>
6. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/uz/docs/-6213382>
7. Wedel, M., Kannan, P.K. Marketing analytics for data-rich environments. Journal of Marketing, 2016.
8. Verhoef, P.C., Kannan, P.K., Inman, J.J. From multichannel retailing to omnichannel retailing. Journal of Retailing, 2015.
9. Porter, M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. — Free Press, 1985.
10. Abdullayev, A., Rahimov, B. Raqamli marketing va marketing strategiyalari. — Toshkent, 2021.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100